

FILOLOGIYA FANLARI

Xalq dostonlarida tibbiy birliklarning qo'llanilishi

Ziyoyeva Marjona

BuxDPI 1-kurs magistranti

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, doston, tibbiyot, tibbiy birlik, efemizm

Keys words. Folklore, epic, medicine, medical unity, ephemeralism.

Ushbu maqolada tibbiy birliklarning turli ko'rinishlari xalq dostonlardagi nazm va nasr parchalarida uchraydigan misollar asosida tahlilga tortilgan. Bunda xalqimiz tomonidan tibbiyot sohasida doir yangicha leksemalarni, turli xil kasalliklarni nomini uchratishimiz mumkin. Maqolada asosiy e'tibor o'tgan davrda yaratilgan xalq og'zaki ijodida qo'llanilgan tibbiyot birliklarini bugungi kundagi ma'nolari va xalq tili bilan yaqinligiga qaratilgan.

In this article, different types of medical units are analyzed on the basis of examples found in the poems and prose fragments of folk epics. At the same time, we can come across new lexemes in the field of medicine, the names of various diseases by our people. The main focus of the article on the closeness of medical units used in the past with their modern meanings and folk language.

Doston, poema — liro-epik janr shu janrdagi badiiyasar. O'zbek xalq, og'zaki ijodi va o'zbek mumtoz adabiyotida keng tarqalgan. Dostonda muayyan voqea liro-epik tasvir vositalari yordamida hikoya qilinadi. Unda hayot, voqelik keng ko'lamda qamrab olinadi, bir yoki ikkita bosh qahramon ishtirok etadi, personajlar esa ko'p bo'ladi. Syujeti sertarmoq, rang-barang. Xalq og'zaki ijodidagi dostonlar nazm va nasr, yozma adabiyotdagi dostonlar nazmda bo'ladi, bunda nasr voqealarni bog'lovchi vazifasini o'taydi. Xalq dostonlari keng qamrovligi va hajmining kattaligi, ko'tarib chiqqan ijtimoiy, siyosiy, axloqiy muammolari, syujetining sertarmoqliigi va personajlarining ko'pligi bilan ajraladi. Xalq og'zaki ijodi bilan tibbiyotning bog'liqligi kelsak bu nazariyaga har tomonla yondashish mumkin. Chunki har bir xalq yaratgan ijod namunlariga qaraydigan bo'lsak tibbiyot bilan aloqador bir qancha leksemalar uchraydi. Bu leksemalar xalq tabobatida boshqa bir ma'no anglatga, og'zaki ijodida yangi bir ma'noni anglatadi. Tibbiyot insoniyat paydo bo'lgan davrda u ham paydo bo'ldi va rivojlanib bordi. Tibbiyotning xalq tabobatidan mustaqil fan darajasiga ko'tarilishida qadimiy Misr, Bobil tibbiyoti, Gippokrat va Lmenning muhim o'rni bor. Gippokrat kasalliklarni aniqlash, bemorning hayoti va faoliyatiga tashqi muhitning ta'sirini o'rganish, xastalikning kelib chiqish sabablarini topish va davolashda bemor organizmining o'ziga xos xususiyatlarini bilish kabi masalalar bilan shug'ullangan.

Xalq dostonlarida tibbiy birliklarning ko'rinishlari:

Qalmoqshoh gapiga quloq solmay,
Buning boshini kesib dorga tortadi.

Ushbu parchada o'lmoq ma'nosini bildiruvchi **"boshini kesmoq"** so'z birikmasi ko'rinishda ifodalangan. Bu birikma desfimizm shaklida ya'ni so'zni qo'pollashtirish turidan foydalanilgan.

("Alpomish" dostoni. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".- 1979, 30-bet)

Ko'p aylanib endi bunda turmagin,
Qimiz yo'qdir o'zing halok qilmagin.

Bu parchada qo'shma fe'l asosida yasalgan **"Halok qilmoq"** so'zi o'lmoq leksemasiga sinonimlik ma'nosida qo'llanilgan.

("Alpomish" dostoni. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".- 1979, 40 -bet)

Xazon bo'lmay bog'da gullar bo'ldimi,
Oblo sening aqli-hushing oldimi,
Ajal yetib yo paymonang to'ldimi.

Bu parchada o'lmoq leksemasiga ikki so'z ishora qilin kelgan, ya'ni **"Ajal yetmoq"** desfemizim shaklida, **"Paymonang to'ldimi"** birikmasi esa efemizim shaklida qo'llanilgan yangi tibbiy birliklardir.

("Alpomish" dostoni. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".- 1979, 73-bet)

Kecharman maydonda jondan,
Jon uzilsa shirin tandin.

Keltirilgan she'riy misrada **"Jon uzilmoq"** tibbiy birligi o'lmoq leksemasi o'rnida qo'llanilgan. Bu leksemalar o'zaro ma'nodosh bo'la oladi.

("Farhod va Shirin" dostoni. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".- 1986, 270-bet)

Yig'laymay qaytayin bo'ldi xiyonat,
Shunday Shirin bolam dunyodan o'tdi,
Mehnat tortib bunda jafolar chekding.

Bu parchada o'lmoq leksemasini efemizim shaklida qo'llangan. Ya'ni to'g'ridan to'g'ri o'ldi deb aytmay, **"Dunyodan o'tdi"** tarzida chiroyli qilib tibbiy birlik sifatida ishlatilgan.

("Farhod va Shirin" dostoni. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".- 1986, 274-bet)

Umrim o'tib xasta bo'lib boraman,
Olis edi, men yaqinlab qolaman,
Men sening sag'ringga minib boraman,
O'lmasam, sening bilan birga bo'laman.

Ushbu parchada **"Umrim o'tib ,xasta bo'lmoq "** ma'nosidagi leksemali birikma,qarilik ma'nosini bildiruvchi so'zga nisbatan yangicha ma'noni ifodalagan.Chunki umrning o'tishi, insoning esa turli xasataliklarga chalinishi bu albatta qarilikdan darakdir.Bu yangi ibora bilan sen qariding deb to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilmay,balki efemizm(qo'pol ma'nodan chiroyliroq ma'noda so'zni ta'riflash) shaklida qo'llanilgan.

("Alpomish" dostoni.Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti".- 1979, 266-bet)

O'tdi yigitlik navbati,

Yetdi qarilikning vaqti, qo'lga tegib ajal xati

Ushbu yuqoridagi parchada qarilikka ishora tariqasida **"Yigitlikning navbati o'tishi va ajal xatining qo'lga tegishi"** kabi ikki ma'nolarda qo'llanilishi berilgan.

("Bahrom va Gulandom" dostoni.Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".- 1986,5-bet)

Nechuk parvoz qilib sen kelding bunda,

Yoshing yetib endi qariysan anda

Bu misralarda ham **"Qariysan"**, ham efemizm shaklida **"Yoshing yetib"** ma'nolarda qo'llanilgan.To'g'ridan-to'g'ri murojaat va chiroyli qolip shaklida qo'llanilgan.

("Bahrom va Gulandom" dostoni.Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".- 1986, 26-bet)

Parilar sultoni bo'lib yurgansan,

Umring oxir,bo'lib vaqting yetibdi.

Bu parchada qarilik leksemasiga ishora tariqasida efemizm shaklida qo'llangan **"Umrning oxiri "** va ko'chma ma'noda qo'llanilgan **"Vaqting yetibdi"** kabi birikmali so'zlar bilan yangi tibbiy birliklar yasalganini kizatishimiz mumkin.

("Bahrom va Gulandom" dostoni.Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".- 1986, 40-bet)

Kassalikka oid atamalarning qo'llanishi:

Boybichalarga shonda to'lg'oq vaqti yaqin etdi; ne kampirlar kelib boybichani aylanib, tulkini inlatgan toziday bo'lib, angnib, o'rtaga olib turibdi.

Bu narsiy parchada tibbiy birlik sifatida **"To'lg'oq vaqti"** ishlatilgan.

To'lg'oq- tug'ish oldida qattiq og'riq, dard bilan bo'ladigan holat.

('Alpomish"dostoni.Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".-1979, 7-bet)

Balandparvoz, xonim, qaydin kelasan...?

Seni **tuqqan**larning bormi armoni.

Bu parchada dunyoga keltirmoq ma'nosini bildiruvchi so'z desfimizm shaklda qo'llangan tu'g'moq fe'lini sheva shakli *tuqqan* leksemasi berilgan.

Tug'moq- bo'yida, qornida bo'lgan bolani oy kuni yetgach dunyoga keltirmoq.

("Alpomish"dostoni.Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".-1979,

96- bet)

Qorajon sir bermagan kishi bo'lib:- Bola kunda tutadigan **quyonchiq** kasalim bor edi, shul vaqt tutib qoldi,- dedi.

Quyonchiq- vaqti vaqti bilan tutib turadigan tutqanoq kasali.

("Alpomish"dostoni.Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".-1979, 101-bet)

Necha vaqtlar yoshlik qilib yurdi, podshohlik davrini surdi, shonda bir kuni xotini **homilador** bo'ldi, bu bechorani ko'ngligga ancha quvonch kirdi.

Homilador-qornida bolasi , ya'ni homlasi bor.

("Bahrom va Gulandom" dostoni.Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".- 1986, 6-bet)

Eshitsanglar tabiblarning so'zini,

Pes bo'lsa ham tuzatamiz o'zini.

Pes- pigment yetishmasligi natijasida terida paydo bo'ladigan oq dog'.

("Zavarxon" dostoni.Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".- 1986, 140-bet)

Kasallik ma'nosida qo'llangan tibbiy birliklar

Seni bildik bunda charchab kelasan,

Qorningni o'lchovin o'zing bilasan.

Keltirilgan misrada "**Qorningni o'lchovi**" leksemasi berilgan. Bu och qolmoq so'zining ma'nosida ishlatilgan tibbiy birlik.Ya'ni she'rda o'zing qorningni o'lchovini o'zing bilasan, och qolganingni ham faqat insonni o'zi biladi degan ma'noda almashinilib qo'llanilgan.

("Alpomish"dostoni.Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".-1979, 318-bet)

Xotiningni oy kuni yaqin yetdi.To'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat, to'qqiz daqiqa oradan o'tdi.

Ushbu parchada "**Oy kuni**" degan birlik qo'llangan.Bu birlik tug'moq leksemasi bilan ma'nodosh bo'la oladi. She'rda leksemani efemizmdan shakli berilgan.

("Bahrom va Gulandom" dostoni.Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".-1986, 6-bet)

Bo'g'inlarim tor-tor bo'shab,

Xazon bo'lgan gulga o'xshab.

Bu parchada qo'l-oyoqlarning,bo'g'inlarning og'rishini ma'nosini anglatuvchi "**Bo'g'inlarim tor-tor bo'shab**" leksemali birikma ishlatilgan. Ya'ni, bo'g'inlarim bo'shashib o'g'riyabdi degan ma'nolar anglashiladi.

Bo'g'in- gave suyaklarning , tog'aylar, paylar birikkan joy.

("Bahrom va Gulandom" dostoni.Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".-1986, 49-bet)

Ertangi nahorda tomir ko'ramiz,

Shunda bizlar tabib kishi bo'lamiz.

Ushbu parchada "**Tomir ko'rmoq**" iborasi qon bosimini o'lchash ma'nosida ishlatilgan. Qadimgi vaqtda manashu tibbiy birlikdan foydalanishgan ("Zevarxon" dostoni. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".-1986, 140-bet)

Kuyganidan tabib bo'lib yuribdi,

Giyohni quritib dori qilibdi.

Bu parchada tibbiy birlik sifatida "**Giyoh**" va "**Dori**" atamaları ishlatilgan.

Giyoh- nabotot, o't , o'simlik. Dorivor giyohlar.

Dori- dori-darmon malham; kasallikni oldini olish uchun ishlatiladigan vosita.

("Zevarxon" dostoni. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".- 1986, 141-bet)

Dardmanlar **shifo topib** boradi,

Tavakalni yaratganga qiladi.

Shifo topmoq- kasallikdan xalos bo'lish, sog'ayish.

("Zevarxon" dostoni. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".- 1986, 141-bet)

Bular ovozi olamga ketdi,

Ikkovi ham dono tabib bo'libdi.

Bu parchada biz hozirda qo'llaydigan shifokor so'zining eskicha shaklda qo'llanilgani, ya'ni **Tabib** so'zi berilgan.

Tabib- bemorlarni tuzatuvchi mutaxassis.

("Zevarxon" dostoni. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti".- 1986, 141-bet)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.A.Qodirov. Tibbiyot tarixi. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
2. "Alpomish" dostoni. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
3. "Farhod va Shirin" dostoni. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
4. "Zevarxon" dostoni. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
5. "Bahrom va Gulandom" dostoni. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
6. Sulaymonov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Namangan, 2008.
7. w.w.w. ziyonet.com
8. w.w.w. linguist.com